

ABU IBROHIM ISMOIL AL-MUSTAMLIY AL-BUXORIYNING “SHARH AT-TA’ARRUF” ASARIDA MAQOM VA HOL TUSHUNCHALARINING TAHLILI

Hasanboy Voxidov

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti magistranti

Ilmiy rahbar.

Professor Komiljon Rahimov

Annotatsiya

Ushbu maqolada Abu Ibrohim Ismoil al-Mustamliy al-Buxoriyning “Sharh at-Ta’arruf li-mazhab at-tasavvuf” asarida bayon qilingan so‘fiylik maqomlari (مقامات) va hollari (أحوال) tushunchalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda mu‘allifning mazkur tushunchalarga bergan ta’riflari, ularning o‘zaro farqlari hamda tasavvuf ilmidagi o‘rni aniqlanadi. Maqolada manbaviy, tahliliy va qiyosiy metodlardan foydalanilgan. Tadqiqot natijalari Mustamliy al-Buxoriyning maqom va hol masalasiga yondashuvi tasavvuf nazariyasini tizimlashtirishda muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: tasavvuf, maqom, hol, tavba, zuhd, sabr, Tavozi, Mustamliy al-Buxoriy, Sharh at-Ta’arruf, Kalobodiy.

ANALYSIS OF THE CONCEPTS OF MAQAM AND HAL IN ABU IBRAHIM ISMAIL AL-MUSTAMLI AL-BUKHARI’S SHARH AT-TAARUF

Abstract

This article analyzes the concepts of spiritual stations (maqamat) and spiritual states (ahwal) as presented in Abu Ibrahim Ismail al-Mustamli al-Bukhari’s work Sharh at-Taaruf li-madhab at-tasawwuf. The study examines the author’s definitions of these concepts, clarifies the distinctions between them, and determines their place within Sufi doctrine. Source-based, analytical, and comparative methods are employed in the research. The findings demonstrate that Mustamli al-Bukhari’s approach to the issues

of maqam and hal plays a significant role in the systematization of Sufi theoretical thought.

Keywords: Sufism, maqam (spiritual station), hal (spiritual state), repentance (tawba), asceticism (zuhd), patience (sabr), humility (tawadu), Mustamli al-Bukhari, Sharh at-Taaruf, Kalabadi.

Tasavvuf islom ilmlarining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u insonning ma‘naviy kamoloti, nafsni poklash va Alloh ta‘olaga yaqinlashish yo‘llarini o‘rganadi. Ushbu ilm doirasida shakllangan asosiy nazariy tushunchalardan biri so‘fiylik maqomlari (مقامات) va hollari (أحوال) hisoblanadi. Bu tushunchalar so‘fiy shaxsning ruhiy taraqqiyot bosqichlarini ifodalovchi asosiy mezonlar sifatida talqin qilinadi.

Movarounnahr hududida yashagan tasavvuf allomalaridan biri Abu Ibrohim Ismoil al-Mustamliy al-Buxoriy (v. 434/1043) tasavvuf ilmiga oid tushunchalarni sharhlash va izohlashda alohida o‘rin tutadi. Uning “Sharh at-Ta‘arruf li-mazhab at-tasavvuf” asari Abu Bakr al-Kalobodiy tomonidan yozilgan “at-Ta‘arruf” kitobiga yozilgan eng mukammal sharhlardan biri bo‘lib, unda tasavvufiy istilohlar, xususan maqom va hol tushunchalari keng va chuqur tarzda yoritilgan.

Tahlil qilingan manbalar shuni ko‘rsatadiki, tasavvufiy ta‘limotda maqom va hol tushunchalari sufiylik yo‘lining nazariy va amaliy asosini tashkil etadi. Ular orqali sufiy shaxsining ma‘naviy yetilishi, ruhiy tajribasi va ilohiy haqiqatga yaqinlashish jarayoni izohlanadi. Dastlabki tasavvufiy manbalarda mazkur tushunchalar ko‘pincha umumiy ma‘noda qo‘llanilgan bo‘lsa, keyingi sharhlarda ularning mazmuni aniqlashtirilib, farqlari ochib berilgan.

Mustamliy Buxoriyning yondashuvi tasavvufiy tajribani tizimlashtirishga qaratilgani bilan ajralib turadi. Uning fikricha maqom bu bandaning sifati hisoblanmaydi. Balki hol bandalik kiyimi, maqom esa Xudolik to‘nidir. Boshqa mu‘alliflar esa buning aksini aytishadi. Maqom solikni o‘z say-harakatlari natijasida yuzaga keladi, hol esa bandaning say-harakatlariga bog‘liq bo‘lmagan tarzda Alloh tomonidan ato qilinadigon narsa deb qarashadi. Buning natijasida esa, maqomlarni sufiy tomonidan ongli ravishda egallanadigan va ma‘lum tartibda bosib o‘tiladigan

bosqichlar sifatida talqin etadi. Hollar esa muayyan sa'y-harakat natijasi emas, balki ilohiy inoyat bilan bog'liq bo'lgan vaqtinchalik ruhiy holatlar sifatida izohlanadi. Bu yondashuv sufiylik sulukini izchil va bosqichma-bosqich jarayon sifatida tushunishga imkon beradi. Shuningdek, muallif tasavvuf manbalarida uchraydigan turli qarashlarni solishtirib, maqom va hol tushunchalarining chegarasini belgilashga harakat qiladi. Umuman olganda, Mustamliy Buxoriyning qarashlari tasavvuf nazariyasini rivojlantirishda muhim bosqich bo'lib, uning asari sufiylik tajribasini muhim jihatdan izohlashga xizmat qiladigan mustaqil va puxta ilmiy manba sifatida baholanishi mumkin. Mustamliy Buxoriy tasavvufga oid maqomlar va holatlarni sharhlash jarayonida, avvalo ularning har biriga lug'aviy jihatdan izoh beradi. Shundan so'ng ushbu tushunchalarning kundalik hayotda yoki shariat doirasida qanday ma'noda qo'llanishini bayon qiladi. Keyingi bosqichda esa ularning tasavvufiy mazmunini tushuntirib, aynan so'fiylar nazarida qanday talqin etilishini ko'rsatib beradi.

“Sharh at-Ta'arruf” asarida keltirilgan maqom va holatlarning chegaralari, miqdori, turlari hamda ketma-ketligi Mustamliy Buxoriy tomonidan aniq belgilab berilmagan bo'lsada lekin bilvosita ishora qilganini ko'rish mumkin. Quyida ushbu asarda zikr qilingan maqom va holatlarning ayrimlariga muallif va ba'zi ulamolar tomonidan berilgan ta'riflar qisqacha bayon qilinadi.

سُئِلَ الْجُنَيْدُ بْنُ مُحَمَّدٍ عَنِ التَّوْبَةِ مَا هِيَ؟ فَقَالَ: هُوَ نِسْيَانُ ذَنْبِكَ. وَسُئِلَ سَهْلٌ عَنِ التَّوْبَةِ، فَقَالَ: هُوَ أَنْ لَا تَنْسَى ذَنْبَكَ.

فمعنى قول الجُنَيْدِ: أَنْ تَخْرُجَ حُلَاوَةً ذَلِكَ الْفِعْلَ مِنْ قَلْبِكَ خُرُوجًا لَا يَبْقَى لَهُ فِي سِرِّكَ أَثَرٌ، حَتَّى تَكُونَ بِمَنْزِلَةِ مَنْ لَا يَعْرِفُ ذَلِكَ قَطًّا.

هذا معنى قول الجُنَيْدِ: هُوَ نِسْيَانُ ذَنْبِكَ. وَأَمَّا قَوْلُ سَهْلٍ: هُوَ أَنْ لَا تَنْسَى ذَنْبَكَ، فمعناه ملازمة الندم.¹

Junayd ibn Muhamma (rahimahulloh)ddan tavba nima ekanligi haqida so'ralganda, u shunday dedi: “Tavba gunohingni unutishingdir.” Sahl ibn Abdulloh (rahimahulloh)ga ham tavba haqida savol berildi. U esa dedi: “Tavba bu gunohingni unutmasligingdir. Junaydning so'zining ma'nosi shuki: gunohdan olingan lazzat qalbingdan butunlay chiqib ketishi kerak, shunday chiqib ketadiki, u qalbingning ichki

الكلاباذي، أبو بكر محمد بن إسحاق، شرح التعرف لمذهب أهل التصوف، شرح إسماعيل بن محمد المستملي البخاري، دار الكتب العلمية، بيروت، ص 107¹

sirida ham iz qoldirmaydi. Hatto sen o'sha gunohni hech qachon bilmagan odam holatiga yetasan.

Junayd (rahimahulloh)ning “gunohni unutish” degan so‘zining ma’nosi mana shu. Sahlning “gunohni unutmaslik” degan so‘zi esa — nadomatni (pushaymonlikni) doimiy saqlash deganidir.

Tavba so‘zi ba’zan o‘zining barcha ma’nolari majmuasiga nisbatan ishlatiladi, ba’zan esa faqat nadomat (pushaymonlik) ma’nosida qo‘llanadi. Bu holda ilm — go‘yo avvalgi bosqich va muqaddima, gunohlarni tark etish esa meva va keyingi natija hisoblanadi. Shu ma’noda Payg‘ambarimiz (sallallohu alayhi vasallam): “Pushaymonlik — tavbadir”, deganlar. Chunki pushaymonlik ilmga tayangan bo‘ladi, u ilm esa uni keltirib chiqargan va undan keyin amal qilishga bo‘lgan qat’iy niyatni talab qiladi. Shunday qilib, nadomat tavbaning ikki tomonini — ong va qalbni — qamrab oladi. Shu e’tiborga ko‘ra, tavba gunohdan keyingi pushaymonlikning erib ketishi (gunohni yuvib yuborishi) deb ta’riflangan².

Aslida tavba maqomi bandaning o‘zini nuqsonli va kamchiliklarga ega deb bilgan holda gunohdan yuz o‘girishi, ya’ni qilgan to‘at va ibodatlarini mukammal deb hisoblamasligidir. Bunda banda faqat Alloh ta’oloning o‘ziga nisbat berilgan yaxshiliklariga e’tibor qaratadi. Chunki u o‘z qilgan amallarini Allohga munosib deb bilmaydi va o‘z ibodatlaridan xuddi gunoh qilgandek qo‘rqib, doimiy ravishda uzr so‘raydi.

Ayrim so‘fiylar nazarida esa tavba — xalqdan chekinish, ya’ni odamlardan zarar yoki foyda yetishi mumkin deb o‘ylamaslik holatini anglatadi. Imom Abul Qosim Qushayriy o‘zlarining “Risola al-Qushayriyya” asarlarida tavba maqomi haqida quydagicha fikr bildiradi: Bunda birinchi maqom tavba, ya’ni pushaymonlikdir. Al-Qushayriy tavbani ruhiy yo‘lning asosi deb ta’riflaydi. Tavba shunchaki kechirim so‘rash emas, balki kelgusida gunohlardan tiyilish uchun mustahkam qaror chiqarishdir. Tavba maqomi so‘fiydan o‘zini tanish, o‘z xatti-harakatlari uchun mas’uliyatni his qilishni talab

² Abu Homid al-G‘azzoliy. Ihyo ulum ad-din. Qohira: Dar al-Ma’rifa, J.4. —B.4.

etadi. Shu sababli birinchi maqom sifatida tavba maqomi qo'yilgan bu bosqichdan o'tgan insongina qolgan bosqichlarga tayyor bo'ladi³.

Tavba maqomidan so'ng zuhd maqomi keladi. Ba'zi tasavvuf allomlari tavbadan so'ngra sabr maqomi deb keltiradilar, lekin Abu Ibrohim Ismoil Mustamliy al-Buxoriy esa sabrni maqomga emas holga taqsim qilgan. Zuhd maqomi hususida quydagilarini keltiradi: Junayd (rahimahulloh) aytadi: "Zuhd — qo'llarning mol-mulkdan bo'shishi, qalbning esa (dunyoga) bog'lanishdan xoli bo'lishidir." Ali ibn Abu Tolib (roziyallohu anhu)dan zuhd haqida so'ralganda, u zot shunday dedilar: "Zuhd — dunyo ne'matlarini kim yeyotgani: mo'minmi yoki kofirmi, bunga befarq bo'lishdir." Yahyo (rahimahulloh) aytadi: "Zuhd — dunyoni tark etishdir." Masruq (rahimahulloh) aytadi: "Haqiqiy zuhd — Alloh bilan birga qalbd boshqa hech narsa qolmasligidir."

Shibliy (rahimahulloh)ga zuhd haqida savol berilganda, u shunday javob berdi: "Haqiqatda zuhd yo'q. Chunki agar sen o'zingga tegishli bo'lmagan narsadan yuz o'girsang — bu zuhd emas. Agar o'zingga tegishli bo'lgan narsadan yuz o'girsang, u sen bilan va qo'lingda bo'la turib, undan qanday yuz o'girsan? Demak, (zuhd) faqat nafsni poklash, saxovat va boshqalarga hamdardlik qilishdir."⁴

Go'yo u zuhdni shunday tushuntiradiki: o'ziga tegishli bo'lmagan narsani tark etish — bu zuhd emas, chunki u baribir tashlab qo'yilgan; o'ziga tegishli bo'lgan narsani esa butunlay tark etish mumkin emas.

Zuhd maqomi haqida Professor Komiljon Rahimov o'zlarining "Movorounnahr tasavvuf tarixi" kitoblarida quyidagicha ta'rifini keltiradilar: Zuhd (o'zini tiyish) — bandaning bu dunyo va unga tegishli bo'lgan barcha narsalarni hech qanday ahamiyatga ega emas deb bilish ma'nosidan voz kechishidir. Zuhdning bir necha darajalari bo'lib, uning birinchi darajasi mol-dunyodan voz kechish, ikkinchi darajasi ko'ngilni taomdan xoli qilish, oxirgi darajasi esa nafsning bu dunyoda foydalanish mumkin bo'lgan barcha narsadan lazzatlanishini tark etishdan iborat. Ayrim zohidlar zuhd deganda nafaqat bu dunyo va unga tegishli bo'lgan barcha narsalar, balki u dunyo

القشيري، أبو القاسم عبد الكريم بن هوازن. الرسالة القشيرية. ضبطه وعلق عليه خليل المنصور. بيروت: دار الكتب العلمية، 2002م³

⁴ Al-Kalabadi, Abu Bakr Muhammad ibn Ishaq. Sharh at-Ta'arruf li-mazhab ahl at-tasavvuf. Sharh: Ismoil ibn Muhammad al-Mustamliy al-Buxoriy. Tahqiq: Sayyid Yusuf Ahmad. Dar al-kutub ilmiya, —B. 112.

va unga tegishli bo'lgan barcha narsalardan ham voz kechib, faqatgina Xudo bilan birga bo'lishni tushunganlar⁵.

Abul Qosim al-Qushayriy(rahimahulloh) esa “Risola al-Qushayriya” asarida zuhdni ta'riflab aytadi: Zohidlik dunyoni tark etishdir, ammo uni olishga qodir bo'lmaganing uchun emas. Yana aytiladi: Zohidlik — sabablar (dunyoviy tayanchlar)dan qalbni bo'shatish, mol-dunyodan qo'llarni bo'sh tutishdir. Zohidlik — nafsning dunyodan qiyinchiliksiz voz kechishidir. Shayx Abu Abdurahmon as-Sulamiyning ta'riflari esa: Men an-Nasrobodiydan eshitdim, u shunday der edi: “Zohid dunyoda g'aribdir, orif esa oxiratda g'aribdir.”⁶ Demak bu ta'riflardan xulosa qilinadigon bo'lsa, haqiqiy zohidlik ,faqat dunyo ne'matini tark etish emas, balki unga bo'lgan ichki hirsni ham tark etishdir. Tashqi ko'rinish (oddiy kiyim, kam xarajat) yetarli emas, qalb ham dunyodan xoli bo'lishi kerak. Kim dunyoni quvmasa, ko'pincha dunyo o'zi uning oldiga keladi. Maqomotlar haqida juda ko'plab ta'riflar keltirish mumkin lekin shu o'rinda ,Mustamliy Buxoriy yana qaysi narsalarni maqomga kiritgani haqida ba'zisini keltirib, so'ngra holatlarni ta'riflashga o'tamiz. “Faqr” “Taqvo” “Tavakkul” “Rizo”, “Zikr” “Qurb” va boshqalarni qo'shib o'tilgan.

Sabr tasavvufda ba'zan maqom, ba'zan esa hol sifatida izohlanadi. Tasavvuf ahli sabrni maqom deb baholaganlarida, uni muridning doimiy ravishda egallab boriladigan ruhiy bosqichi deb tushuntiradilar. Bu jarayonda solik o'z ixtiyori va irodasi bilan qiyinchiliklarga sabr qiladi, nafs istaklariga qarshi kurashadi. Hol sifatida esa sabr — Alloh tomonidan bandaga ato etiladigan ruhiy hol bo'lib, unda inson og'ir sinovlarni yengil qabul qiladi va ichki xotirjamlikka erishadi. Ismoil ibn Muhammad al-Mustamliy Buxoriy tasavvufdagi maqomlar bilan hollarni alohida yozmagan bo'lsada lekin ularni farqlab bevosita ishora qilib o'tgan. Holatlarga birinchi o'rinda “Sabr” holati kiradi.

قال سهل: الصبر انتظار الفرج من الله تعالى، وهو أفضل الخدمة وأعلاها.

⁵ Komiljon Rahimov. Movarounnahr tasavvufi tarixi: ta'limotning shakllanishi va tizimlashtirilishi (VIII–XI asrlar). — Toshkent: Akademnashr, 2020. — B. 166.

⁶ Abulqosim al-Qushayriy. Ar-Risola al-Qushayriyya. — Bayrut: Dar al-Kutub al-Ilmiyya, 2002. — B. 63.

Sahl(rahimahulloh) shunday degan: “Sabr — Alloh taolodan keladigan farajni (yengillikni) kutishdir. U ibodat va xizmatlarning eng afzali va eng yuksagidir.” So’ngra boshqa bir so’zida “Sabr”holati haqida shunday deydi. “Sabr — muqaddas bir sifatdir; narsalar u bilan poklanadi.”

Shoirlardan bir aytadi:

صَابِرُ الصَّبْرِ فَاسْتَعَاثَ بِهِ الصَّبْرُ،
فَنَادَى الصَّبُورُ: يَا صَبْرُ صَبْرًا

Ma’nosi:

Musobaqa qiluvchi sabr bilan sobir bo‘l,

vale sabri qolmay, sabrning oxiri toqat bitdi (!) deya zohir bo‘ldi.

Shunda nido qildi sabrga sobir:

“sabr ayla, biroz, sabr!”⁷

“Sabr” holati haqida Professor Komiljon Rahimov o’zlarining “Movorounnahr tasavvuf tarixi” kitoblarida quyidagicha ta’rifini keltiradilar: “Sabr (chidash) — bandaning Alloh yuborgan har qanday baloga chidashi va Xudodan boshqadan najot kutmasligidir. Sabrning yuqoriroq darajasi esa sabrda sabr qilmoqlikdan iborat bo‘lib, bunda banda o‘zining qilayotgan sabrini ko‘rmaydi, ya’ni o‘zini sabr qilayotgan deb hisoblamaydi.”⁸

Sabr holati haqidagi bu ta’riflar “Sharh at-ta’arruf li mazhab ahli tasavvuf” asaridagi ta’riflardir. Shu o’rinda Abul Qosim Qushayriy esa Sabr holatini maqomlar sarasida sanab o’tib quyidagicha ta’riflaydi. Tavbadan keyin solik ko‘pincha sabr maqomini boshidan kechiradi. Bu bosqich shaxsning sabr-toqatini sinovdan o‘tkazadi, ularni qiyinchilik sinovlar va qiyinchiliklarga chidamli bo‘lishiga majbur qiladi. Sabr ichki kuch va chidamlilikning bir shaklini singdiradi. Banda boshiga tushgan baloni ko‘rmaslik, ya’ni balo deb hisoblamaslik orqali baloda sabr qiluvchi bo‘lsa, sabrni

⁷ Abu Bakr Muhammad ibn Abu Is’hoq Kalobodiy Buxoriy. At-ta’arruf li mazhabi ahli-tasavvuf (Tasavvuf ahlining yo’li bilan tanishuv). — Toshkent: Qamar-media, 2022. — B.166.

⁸ Komiljon Rahimov. Movarounnahr tasavvufi tarixi: ta’limotning shakllanishi va tizimlashtirilishi (VIII–XI asrlar). — Toshkent: Akademnashr, 2020. — B. 168.

koʻrmaslik, yaʼni oʻzini sabr qilayotgan deb hisoblamaslik orqali sabrda sabr qiluvchi boʻladi⁹.

Tasavvufiy manbalarda sabrning eng oliy darajasi — bu shikoyatsiz, eʼtirozsiz va mukammal rozilik bilan chidashdir. Bunday sabr insonni maʼnaviy yuksaklikka olib chiqadi va uni Allohga yaqinlashtiradi. Shu bois tasavvufda sabr faqat passiv kutish emas, balki faol ruhiy tarbiya, nafsni poklash va iymonni mustahkamlash vositasi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, tasavvufdagi sabr holati insonning ichki dunyosini tartibga soluvchi, uni sabr-toqat, tavakkul va rizo sifatlari bilan bezovchi muhim ruhiy holatdir. U solikni sinovlar orqali kamolga yetkazib, haqiqiy maʼnaviy erkinlikka eltadi. Holatlar qatorida yana biri “Tavozu” holatidir.

سئل الجنيد عن التواضع، فقال: هو خفض الجناح، وكسر الجانب.
قال رؤيم: والتواضع تذلل القلوب لعلام الغيوب.

Junayd (rahimahulloh)dan tavozuʼ haqida soʻralganda, u shunday dedi: “Tavozuʼ — qanotni past tutish (yaʼni kibrlanmaslik) va oʻzingni sindira bilishdir.”

Ruʼaym(rahimahulloh) aytadi: “Tavozuʼ — qalblarning gʻayblarni biluvchi Zot (Alloh) oldida boʻyin egishidir.” Sahl(rahimahulloh) aytadi: “Allohnin zikr qilishning kamoli — Uni mushohada qilishdir, tavozuʼning kamoli esa Uning hukmiga rozi boʻlishdir.”

Boshqa biri aytadi: “Tavozuʼ — haqiqatni Haq (Alloh)dan, Haq uchun qabul qilishdir.¹⁰”

Tavozuʼ (kamtarlik) haqida baʼzi mutasavviflarning soʻzlarini keltirdik. Ammo tavozuʼning chegarasi, haqiqati va nihoyasini Imom Gʻazzoliy “Ravzat at-tolibin” kitobida bayon qilib, shunday degan: “Tavozuʼning chegarasi — ixtiyoriy holatlarni haddan oshish va beparvolikdan saqlashdir: na kibrlanish, na oʻzini haddan ziyod pastga urish. Tavozuʼning haqiqatiga kelsak — bu haq oldida osonlik bilan boʻyin egish va itoat qilishdir. ‘Haq’ deganda Alloh taolo va Uning amri nazarda

⁹ Abulqosim al-Qushayriy. Ar-Risola al-Qushayriyya. — Bayrut: Dar al-Kutub al-Ilmiyya, 2002. — B. 76.

¹⁰ 115. الكلاباذي، أبو بكر محمد بن إسحاق، شرح التعريف لمذهب أهل التصوف، شرح إسماعيل بن محمد المستملي البخاري، دار الكتب العلمية، بيروت، ص 115.

tutiladi. Kibrli va nodon kishi esa faqat tashqi ishga qarab hukm qiladi va xorlikni his qiladi. Qanchalik kibr ko‘p bo‘lsa, xorlik shunchalik ko‘p bo‘ladi. Ammo Allohni bilgan olimlar ishni Allohdan boshqaga nisbat bermaydilar va hukmlar bilan bezovta bo‘lmaydilar. Aksincha, buni o‘zlarining karomat belgisi deb biladilar.”

Yuqoridagi so‘zlardan xulosa qilinadigon bo‘lsa, Tavozi’ — bu o‘zini past ko‘rsatish emas, balki haqiqat oldida bo‘yin egish, kibru havo va o‘zini ulug‘lashdan pok bo‘lishdir. Tavozi’li inson Allohning hukmiga rozi bo‘ladi, maqtovdan mag‘rurlanmaydi, tanqiddan ezilmaydi. U o‘zini boshqalardan ustun ko‘rmaydi, lekin o‘z qadrini bilgan holda adolat va xotirjamlik bilan yashaydi. Tasavvufda tavozi’ qalbning pokligi, iymonning yetukligi va haqiqiy kamolot belgisi hisoblanadi.

Tadqiqot jarayonida asosiy manba sifatida Abu Ibrohim Ismoil al-Mustamliy al-Buxoriyning “Sharh at-Ta‘arruf li-mazhab at-tasavvuf” asari tanlab olindi. Shuningdek, Abu Bakr al-Kalobodiy, Abulqosim al-Qushayriy asarlari bilan qiyosiy tahlil qilib, tadqiqotda tarixiy, tahliliy va qiyosiy metodlardan foydalanildi. Arabcha matnlar asosida tushunchalarning mazmuni aniqlanib, ilmiy xulosalar chiqarildi.

Mustamliy al-Buxoriyning maqom va hol tushunchalariga yondashuvi klassik tasavvuf manbalari bilan qiyoslanganda, ularning umumiy jihatlari bilan bir qatorda o‘ziga xos tomonlari ham mavjudligi aniqlanadi. Jumladan, Qushayriy “Ar-Risola” asarida maqomni kasb orqali hosil bo‘ladigan ruhiy daraja sifatida ta’riflagan bo‘lsa, Mustamliy bu tushunchani yanada tafsilotli va tizimli tarzda sharhlaydi.

Xulosa qilib aytganda, Abu Ibrohim Ismoil al-Mustamliy al-Buxoriyning “Sharh at-Ta‘arruf” asari so‘fiylik maqomlari va hollari masalasini tizimli va ilmiy asosda yoritgan muhim manbalardan biri hisoblanadi.

“Sharh at-ta‘arruf” asarida maqom va hol o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik, ularning farqli jihatlari hamda bir-birini to‘ldiruvchi xususiyatlari chuqur asoslab beriladi. Mustamliy Buxoriy tasavvufni faqat botiniy tajribaga tayanadigan yo‘l sifatida emas, balki shariat, amal va ilohiy inoyat uyg‘unligida shakllanadigan mukammal ma’naviy tizim sifatida talqin qiladi. Shu jihatdan, uning maqomlar va hollarga oid qarashlari

tasavvufiy ta'limotda ilmiy-nazariy aniqlikni ta'minlab, keyingi mutasavviflar qarashlariga ham kuchli ta'sir ko'rsatgan.

Xulosa qilib aytganda, Mustamliy Buxoriyning “Sharh at-ta'arruf” asarida maqomlar va hollarning tahlili solikning ma'naviy kamolot yo'lini anglashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Asarda ilgari surilgan g'oyalar tasavvufda haqiqiy yuksalish ichki ruhiy kechinmalar, to'g'ri amal va shariatga sodiqlikning uzviy birligi orqali yuzaga kelishini yaqqol namoyon etadi. Bu esa “Sharh at-ta'arruf” asarining tasavvuf ilmi tarixidagi nazariy va amaliy ahamiyatini yanada oshiradi

FOYDALANGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Al-Kalabadiy, Abu Bakr Muhammad ibn Ishoq. Sharh at-ta'arruf li-mazhab ahl at-tasavvuf / sharh: Ismoil ibn Muhammad al-Mustamliy al-Buxoriy; tahqiq: Sayyid Yusuf Ahmad. — Bayrut: Dar al-Kutub al-Ilmiyya, — B. 112, 115.
2. Al-G'azzoliy, Abu Homid. Ihyo ulum ad-din. 4-jild. — Qohira: Dār al-Ma'rifa, “Tavba kitobi”, — 4-bet.
3. Al-Qushayriy, Abulqosim Abdulkarim ibn Hovazin. Ar-Risola al-Qushayriyya / nashrga tayyorlovchi va izohlar muallifi: Xalil al-Mansur. — Bayrut: Dar al-Kutub al-Ilmiyya, 2002. — B. 63, 76.
4. Kalobodiy Buxoriy, Abu Bakr Muhammad ibn Abu Ishoq. At-ta'arruf li mazhabi ahl at-tasavvuf (Tasavvuf ahlining yo'li bilan tanishuv). — Toshkent: Qamar Media, 2022. — B. 166.
5. Rahimov Komiljon. Movarounnahr tasavvufi tarixi: ta'limotning shakllanishi va tizimlashtirilishi (VIII–XI asrlar). — Toshkent: Akademnashr, 2020. — B. 166–168.
6. wikipedia.org